

**Gurlan tumani «Ziyokor» MFY axoli tomorqalariga oqar suv yetishmayotganligi
sababli «Mang'it» kanalidan «Hizir eli» anhoriga keladigan beton ariqni rekonstruksiya
qilish obyektiga loyixa-smeta xujjatini ishlab chiqish va topografiya ishlarini bajarish
bo'yicha
ShARTNOMA № 32**

« 21 »Noyabr

2022 yil

Urganch shaxri

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Xorazmsuvqurilishinvest» davlat muassasasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **A.Qurbonboyev** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Loyixachi» deb yuritiladigan **«Birlashgan Baraka Loyixa» MChJ(«Urganch suv loyixa»MChJ)** nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **A.Tuliev** ikkinchi tomondan Gurlan tumani «Ziyokor» MFY axoli tomorqalariga oqar suv yetishmayotganligi sababli «Mang'it» kanalidan «Hizir eli» anhoriga keladigan beton ariqni rekonstruksiya qilish obyektiga loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqarish va topografiya ishlarini bajarishga (LSX) doir mazkur shartnomani tuzdilar. Loyixachi tashkilotni aniqlash bo'yicha xarid.uz portalida 2022 yil 9 noyabr kuni Lot №22110012186584 son bilan e'lon qilingan.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Loyixachi «Buyurtmachi»ning loyixalash topshirig'i bo'yicha ishchi loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chikish, topografiya ishlari(LSX)ni bajarish xamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi №396 -sonli buyrug'ining 8-ilova 3 bandiga asosan mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi.

1.2. «Buyurtmachi» LSX ishlarini bajarish uchun topshiriq berish, zarur bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni kabul kilib olish, belgilangan tartibda va mikdorda xaqini to'lash majburiyatini oladi.

1.3. «Loyixachi» ko'rsatib o'tilgan ishlarni «Korxona, bino va inshootlari loyixa smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chikish tartibi va tasdiklash» xakidagi 1.03.01-03 ShNK qoida va qo'llanmalari va mazkur shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

2. Ishlarni bajarish muddati

2.1 Mazkur shartnomada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrda «2022-2023 yillarda maxallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyatidagi mahallalarning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xamda xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 05 noyabr 2022 yil VI-54-151-12-0-R/22 qaroriga asosan ob'ektlarning loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chikish bo'yicha ishlarini tashkil to'g'risida xamda loyixachi tashkilotni aniqlash bo'yicha tanlov komissiyasining 2022 yil 17 noyabrdagi №186584-sonli bayoniga ko'ra jami (QQS bilan) **122 000 000** so'm bo'lib, shundan loyixa qidiruv ishlariga (QQS bilan) **117 000 000 000** so'm, qurilish davomida mualliflik nazoratini olib borish ishlari uchun (QQS bilan) **5 000 000** so'm qilib belgilanib,LSXni tayyorlash muddati 5 kun etib belgilandi.

2.2 «Buyurtmachi» tomonidan topshiriq, birlamchi ma'lumotlarni berish va «Loyixachi» tomonidan «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha ishchi LSXni ishlab chiqish, amaldagi tartib qoidalar bo'yicha topshirish muddatlarini tomonlar kalendar jadvalda belgilaydilar va u shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

3. Shartnoma baxosi.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Loyixachi tomonidan bajariladigan ishlar, barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalarni va «Loyixachi»ning mualliflik nazoratini olib borish ishlarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda (QQS bilan) **122 000 000** so'mni tashkil qiladi, shundan 2022 yil tasdiklangan manziliy dasturiga asosan **122 000 000** so'm moliyalashtiriladi.

4. To'lov shartlari.

4.1 Shartnomada milliy valyuta «so'mda» o'zaro xisob-kitob qilinishi belgilanadi, to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri xisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Mazkur shartnoma bo'yicha maqsadli avans, ishlar umumiy qiymatining **30** foizini tashkil qiladi.

4.3. «Buyurtmachi» mazkur shartnomada belgilangan LSXni ishlab chiqarish ishlari to'laligicha bajarilib, xajmi, sifati va «Loyixachi»ning xisoboti tekshirilib, Davlat va ekologik ekspertizalardan o'tkazilib aniqlangan kamchilik va xatolar, bildirilgan e'tirozlar bartaraf qilinib, ijobiy xulosalar

olingandan keyin loyixa smeta xujjatlarini ishlab chiqish qiymati doirasida ilgari berilgan avans xisobga olgan xolda yakuniy to'lovni amalga oshiradi.

5. Taraflarning xuquq va majburiyatlari.

“Loyixachi”ning majburiyatlari:

5.1. Loyixalash xaqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini shartnomada belgilangan muddatda “Buyurtmachi”ga 3 nusxada topshirish majburiyatlarini oladi.

5.2. Tayyor bo'lgan LSXni “Buyurtmachi” bilan birgalikda foydalanish tashkilotlari (elektr tarmoqlari korxonasi, vodokanal, raygaz, yong'in xavfsizligi nazorati) tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib oladi.

5.3. “Loyixachi” “Buyurtmachi”ning rozilgisiz loyixa-smeta xujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaydi.

5.4. Tayyorlangan LSX asosida uchinchi shaxslarda ishlarni bajarishga qarshilik qilish yoki bajarishni cheklash xuquqi yo'qligini kafolatlaydi.

5.5. “Buyurtmachi” bilan birgalikda ishlab chiqilgan LSXni Davlat va ekologik ekspertizalardan o'tkazish, ularning qayd qilgan xato va kamchiliklarini bildirgan e'tirozlarini beg'araz bartaraf qilish majburiyatini oladi.

5.6. “Loyixachi” obyektga o'zi ishlab chiqqan loyixasi belgilariga xisob kitoblarga, belgilangan me'yorlar bo'yicha xisoblanganligi smeta xujjatlarini to'g'riligiga javobgardir.

“Buyurtmachi”ning majburiyati:

5.7. “Loyixachi”dan olingan LSXdan faqat mazkur shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, LSXni “Loyixachi”ning rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

5.8. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomani 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun ajratilgan mablag' miqdorida “Loyixachi”ga xaq to'lash.

5.9. “Loyixachi”ga loyixa ishlarini bajarishda ushbu shartnomada nazarda tutilgan hajmda va shartlarda xizmat ko'rsatish.

5.10. Tayyor bo'lgan loyixa-smeta xujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda “Loyixachi” bilan birga qatnashish.

5.11. Loyixa ishlarini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish.

5.12. Tayyorlangan loyixa-smeta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan “Buyurtmachi”ga nisbatan qo'zg'atilgan davo yuzasidan ishga qatnashishga “Loyixachi”ni jalb qilish.

5.13. “Loyixachi” LSXni ishlab chiqish jarayonida zarurat bo'lsa ayrim maxsus qismlarini bajarish uchun yordamchi (subpodryadchiklarni) jalb qilishga tegishli ruxsatnomasi mavjud bo'lganda ruxsat berish.

6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

6.1. Bajarilgan ishlarni baxolash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida kalendar jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

6.2. “Loyixachi” tomonidan topshirilishi va rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan xujjatlar ro'yxati texnik topshirikda aniklanadi.

6.3. “Loyixachi” ishlarni bajarib bo'lgach, “Buyurtmachi”ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib bitta elektron variant va 3 ta nusxada xujjatlar komplektini hisobot bilan taqdim etadi.

6.4. “Buyurtmachi” mazkur shartnomada ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va “Loyixachi”ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

6.5. Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish davomida “Buyurtmachi”ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofik emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi xaqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan

yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan xollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklanadi.

6.7. O'zaro xisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish xaqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

6.8. Ishlarni bajarish (bosqichlar) davomida loyixa-smeta xujjatlarida kelib chiqqan kamchilik, hato va nuqsonlar paydo bo'lganda "Loyixachi" ularni beg'araz bartaraf etishi, belgilangan tartibda tegishli xulosalar olishi va bunga sarflanadigan xarajatlarni o'z xisobidan amalga oshiradi.

6.9. Agar "Loyixachi" o'tgan bosqich uchun xisobot bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

7. Taraflarning javobgarligi.

7.1. "Loyixachi" LSXdagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyixa-smeta xujjatlari malumotlari asosida barpo etilgan obektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan xarajatlarni qoplaydi.

7.2. LSXdagi kamchiliklar aniqlangan taqdirda "Loyixachi" "Buyurtmachi"ning talabi bilan LSXni bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. Tomonlarning majburiyatlarini bajarmaganligi yoki etarli darajada bajarmaganliklari uchun javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi» qonunga, xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.4. Ishlarni bajarish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq bajarib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, "Loyixachi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ishlarni bajarish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq bajarib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

7.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch xolati (fors - major).

8.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu xolat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

8.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Loyixachi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama qiladilar.

Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

9. Qo'shimcha shartlar

9.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 1.1.- badda ko'rsatilgan ob'ektdan tashqari, "Loyixachi" tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas.

9.2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - xukukiy bazasi to'g'risida» gi qonuniga, xamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha xaqiqiy xisoblanadi.

10.2. Loyixa qidiruv ishlari yakunlash muddati 2022 yil 21 noyabr qilib belgilandi. Shartnomaning muddati tugashiga qaramay, tomonlar shartlarni buzganliklari uchun javobgarlikdan ozod etilmaydi.

11. Baxslarni xal etish tartibi

11.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar o'zora muxokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

12.1. shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday hatti-harakatlarni amalga oshirmaslik;

-shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan - to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarni bajarmasligi shart.

b) tomonlar ushbu harakatlarni oldini olish uchun choralarni ko'rishini kafolatlaydilar.

13. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish tartibi va bekor qilish tartibi.

13.1. Ushbu shartnomaga xar kanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy xisoblanadi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga ko'ra, etkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

13.3. "Loyixachi"ning aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi shartnomada belgilangan muddatdan bir oydan oshiq muddatga kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, "Buyurtmachi" shartnomani bekor qilishga va sifatsiz bajarilgan ishlar summasi miqdorida jarima undirishga xaqli.

13.4. "Loyixachi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyixa ishlari "Buyurtmachi" tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, "Buyurtmachi" loyixalash ishlarining xaqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, "Loyixachi" shartnomani bekor qilishga xaqli.

13.5. Shartnomani bekor qilish xaqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa shartnoma bekor qilingan xisoblanadi.

13.6 Mazkur shartnoma xar ikkala taraflar tomonidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal kiladi.

14. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

Buyurtmachi:

«Xorazmsuvqurilishinvest» DM

Urganch sh. O'zbekiston ovozi

ko'chasi.2-a uy

Telefon:223-35-49

Shhr: 301821860334017065200110033

STIR 201568648 OKED 70100

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

G'azna x/v: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM

MFO 00014 STIR 201122919

Direktor:

A.Qurbonboyev

Xuquqshunos : B.Razzoqov

Loyixachi:

«Birlashgan Baraka Loyixa» MChJ

(«Urganch suv loyixa»MChJ)

Urganch shaxar I.Dusov

kuchasi 25 uy

Telefon.: 97-851-55-65

h/r: 20208000505373932001

Bank: «Aloqa bank » Urganch filiali

MFO: 00861

INN: 308356982


Raxbar:


A.Tuliev

**Gurlan tumani «Ziyokor» MFY axoli tomorqalariga oqar suv yetishmayotganligi sababli
“Mang'it” kanalidan “Hizir eli” anhoriga keladigan beton ariqni rekonstruksiya
qilish obyektiga loyixa-smeta xujjatini ishlab chiqish va topografiya ishlarini
bajarish bo'yicha ShARTNOMAGA ASOSAN ISHLARNI BOSHLANISH VA
TUGALLANISH SANASI**

No	Ish turlari	Ishlarni boshlanish sanasi	Ishlarni tugallanish sanasi
1	Loyixa-kidiruv ishlari	17 noyabr 2022 yil	21 noyabr 2022 yil


«Buyurtmachi»

 A. Qurbonboyev



Shartnoma umumiy narxi :
2022 yil uchun
QQS 15%

«Loyixachi»

 A. Tuliev



122 000 000 so'm
122 000 000 so'm
15 913 043 so'm

**Loyixa-qidiruv ishlarining kiymatini kelishilgan
narxda to'lash to'grisida**

BITIM

Asos: Shartnoma № 32

2022 йил 21 Noyabr


Biz quyida imzo chekuvchilar «Buyurtmachi» tomonidan «Xorazmsuvqurilishinvest» DM direktori A. Qurbonboyev va «Loyixachi» tomonidan «Birlashgan Baraka Loyixa» MChJ («Urganch suv loyixa» MChJ) direktori A. Tuliev loyixa-qidiruv ishlari uchun «Buyurtmachi» kuydagi narxni 122 000 000 so'mni to'lashni o'z zimmasiga oladi va tasdiqlaydi. Ushbu bitim «Buyurtmachi» va «Loyixachi» o'rtasida to'lovlarni xisob-kitob qilish uchun asos bo'ladi. Ushbu bitim tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va ishlarni bajarilgan kungacha amal qiladi.

«Buyurtmachi»

 A. Qurbonboyev



«Loyixachi»

 A. Tuliev



"TASDIQLAYMAN"

Xorazm viloyati hokimi

o'rinbosari

B. Qurbanov

2022-yil "07" 11

11

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi

"Xorazmsuvqurilishinvest" Davlat muassasasi buyurtmachiligi bo'yicha irrigatsiya-meliorasiya obyektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlarining

2022-yil loyiha-qidiruv ishlari MANZILLI RO'YXATI

(asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022 yildagi PQ-408-sonli qarori, hamda Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 05.11.2022 yildagi VI-54-151-12-0-K/22-sonli qarori)

(mln.so'm, joriy narxda)

T/r	Obyektlar nomi va manzili	Loyiha quvvati xos birlikda	Qurilish boshlanish va foydalanishga topshirish yili	Obyekt qurilishining hisobiy (dastlabki) umumiy qiymati	Loyiha bosqichi DTIA, DTIX, TIA, TIX, L, IH, IL, TH	Obyektning loyiha-qidiruv ishlari qiymati	Loyiha boshidan 01.01.22 y., holatiga bajarilgan loyiha-qidiruv ishlari	01.01.22 y., holatiga loyiha-qidiruv ishlari qoldiq qiymati	2022 yil uchun kapital qo'yilmalar limiti	Loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga topshirish muddati (oy, yil)	Tender (tanlov)lar natijasiga bo'yicha bayonnoma raqami va sanasi	Loyihachi tashkilot nomi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
	Jam'i loyiha-qidiruv ishlari, jumladan			9 016,000		426,200		426,200	9 016,000			
1	Gurlan tumani "Ziyokor" MFY aholi tomorqalariga oqar suv yetishmayotganligi sababli "Mang'it" kanalidan "Hizir eli" anhoriga keladigan beton ariqni rekonstruktsiya qilish zarur.	2,5 km	2022 yil	3 000,000	IL	125,400		125,400	3 000,000	noyabr		tanlov
2	Gurlan tumani "Dehqon" MFY hududiga Temir yo'l vokzali qurilish ishlari olib borilayotgan bo'lib, vokzalga olib boruvchi yo'l mahalla hududidagi zahkashni kesib o'tishi natijasida zahkash ko'milib qolgan.	1 dona	2022 yil	750,000	IL	37,500		37,500	750,000	noyabr		tanlov
3	Urganch tumani "Zargarlar" MFYdagi "Baxmal" ariqning 2 km qismini ta'mirlash-tiklash.	2 km	2022 yil	120,000	IL	6,000		6,000	120,000	noyabr		tanlov
4	Urganch tumani "Ravot" MFY "Kum-yop" zaxkashi ichki zovurining 3 km qismini ta'mirlash-tiklash.	2,5 km	2022 yil	300,000	IL	15,000		15,000	300,000	noyabr		tanlov
5	Urganch tumani "Yangi o'rta bog' " MFY hududidagi "Qumyop" kanalini PK38+00ga, "G'aybu" kollektoriga yangidan bitta nasos agregatini o'rnatish, hududlari suv ta'minotini yaxshilash.	1 dona	2022 yil	350,000	IL	17,500		17,500	350,000	noyabr		tanlov
6	Xiva tumani "Chanashiq" MFY aholisining tomorqa yerlarini sug'orish uchun "Zey-yop" kanaliga 1 dona suv nasos o'rnatish.	1 dona	2022 yil	100,000	IL	5,000		5,000	100,000	noyabr		tanlov
7	Xiva tumani "Parchan hos" MFY aholisining tomorqa yerlarini sug'orish uchun "G'ovuk" kanaliga 1 dona suv nasos o'rnatish.	1 dona	2022 yil	500,000	IL	25,000		25,000	500,000	noyabr		tanlov
8	Xiva tumani "Shayx Najmiddin Kubro" MFY "Gullagbog'" va "Sayot" kanallarini 6 km qismini betonlashtirish.	6 km	2022 yil	846,000	IL	42,300		42,300	846,000	noyabr		tanlov

T/r	Obyektlar nomi va manzili	Loyiha quvvati xos birlikda	Qurilish boshlanish va foydalanishga topshirish yili	Obyekt qurilishining hisobiy (dastlabki) umumiy qiymati	Loyiha bosqichi DTIA, DTIX, TIA, TIX, L, IH, IL, TH	Obyektning loyiha-qidiruv ishlari qiymati	Loyiha boshidan 01.01.22 y., holatiga bajarilgan loyiha-qidiruv ishlari	01.01.22 y., holatiga loyiha-qidiruv ishlari qoldiq qiymati	2022 yil uchun kapital qo'yilmalar limiti	Loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga topshirish muddati (oy, yil)	Tender (tanlov)lar natijasiga bo'yicha bayonnoma raqami va sanasi	Loyihachi tashkilot nomi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
9	Xiva shahar "Gazchi" MFY "E.Ollayorov" ko'chasida (0,7 km) va "Elobod" ko'chasida (0,8 km) jami 1,5 km uzunlikda sug'orish tizimi (lotok) yotqizish. Buning natijasida mazkur hududlarni ko'kalamzorlashtirish ishlari samaradorligi oshadi.	1,5 km	2022 yil	300,000	IL	15,000		15,000	300,000	noyabr		tanlov
10	Xiva shahar "Angariq" MFY hududidagi "Inoq" kanalining 2 km qismini betonlashtirish.	2 km	2022 yil	800,000	IL	40,000		40,000	800,000	noyabr		tanlov
11	Shovot tumani "Asavey" MFYdan oqib o'tuvchi Shovot kanaliga mahalla aholisiga suv chiqarish uskunasi (nasos) o'rnatish.	1 dona	2022 yil	450,000	IL	22,500		22,500	450,000	noyabr		tanlov
12	Shovot tumani "To'qmang'it" MFYdan oqib o'tuvchi Shovot kanaliga mahalla aholisiga suv chiqarish uskunasi (nasos) o'rnatish.	1 dona	2022 yil	500,000	IL	25,000		25,000	500,000	noyabr		tanlov
13	Yangiariq tumani "Yangiobod" MFY hududidan o'tgan "Beshayvon" zahkashi va "Xon yopi"ni suv oqimi pastligi sababli 1 km qismini qazish	1 km	2022 yil	800,000	IL	40,000		40,000	800,000	noyabr		tanlov
14	Yangiobod tumani "Itfixor" MFYda 450 ta qo'shimcha dala tomoqchalari uchun suv ta'minoti yo'qligi.	3 dona	2022 yil	200,000	IL	10,000		10,000	200,000	noyabr		tanlov

"Kiritildi"
O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining "Xorazmsuvqurilishinvest" Davlat muassasasi direktori

A.Qurbonboyev

2022-yil "07" 11

Sheif (B. Shovotko)

"KELISHILDI"
Xorazm viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
A.Ro'zmetov
"07" 11 2022 yil